

Functional Semantic Differences In Time Deixis In English And Uzbek

Rajabboqiyeva Barno Obidjon qizi

Master student at Turon University

Email: rajabboqiyevab@gmail.com

Scientific supervisor: doc.M.Khamrayeva

Abstract

The author in the paper examines the linguistic differences in temporal deixis between English and Uzbek languages. Temporal deixis refers to the way languages anchor events in time relative to the moment of speaking. English predominantly relies on a rich tense system including past, present, and future forms to explicitly encode temporal relations. Uzbek, however, places greater emphasis on context, adverbials, and aspectual markers, with a comparatively simpler tense system. The study highlights how these structural differences influence speakers' expression of time, narrative organization, and interpretation of temporal reference. By comparing authentic language data and native speaker intuitions, the analysis reveals that while English temporal deixis is largely grammaticalized, Uzbek temporal deixis often depends on pragmatic cues and discourse context. These findings contribute to a deeper understanding of cross-linguistic variation in deixis and may support more effective language learning and translation practices.

Key words: tense, time, expressions, yesterday, today, tomorrow, present simple, past simple, future simple, present perfect, future perfect.

Annotatsiya

Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida vaqt deyksisining lingvistik tafovutlari tahlilga olindi. Vaqt deyksisi voqealarni so'zlovchining nutq vaqtiga nisbatan qanday belgilashini ifodalaydi. Ingliz tilida vaqt deyksisi asosan murakkab zamon tizimi orqali (o'tgan zamon, hozirgi zamon va kelasi zamon shakllari vositasida) aniq grammatik jihatdan ifodalanadi. O'zbek tilida esa vaqtni ifodalash ko'proq kontekst, vaqt bildiruvchi qo'shimcha so'zlar va zamon belgilovchi affikslarga tayanadi, zamon tizimi esa nisbatan sodda. Tadqiqotda shuningdek, ushbu vaqt deyksisidagi farqlarni nutqda ifodalanishi, matning vaqt bo'yicha tashkil etilishi ikkinchi shaxs yoki o'quvchiga vaqtni namoyon qiladi. Haqiqiy til materiallari va ona tilida so'zlovchilarning fikrlari tahlili asosida ingliz tilida vaqt deyksisining asosan grammatik jihatdan mustahkamlanganligi, o'zbek tilida esa ko'proq pragmatik omillar va kontekstga bog'liqligi ko'rsatadi. Ushbu xulosalar turli tillardagi deyksis tizimlarini chuqurroq anglashga va tarjima hamda til o'rgatish jarayonlarida yanada samarali yondashuvni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: deyksis, o'tgan zamon, hozirgi zamon, kelasi zamon, kecha, bugun, ertaga.

Kirish. Ma'lumki, deyksis so'zi yunon tilidan olingan bo'lib, ko'rsatkich ma'nosini ifodalaydi. Shuning uchun deyksis tushunchasi yunon falsafasida ildizlarga ega. Tilshunoslikda deyksis tushunchasining besh xil turi mavjud. Bular: 1) vaqt deyksisi; 2) kishilik deyksisi; 3) o'rin-joy deyksisi; 4) ijtimoiy deyksis hamda 5) diskursiv deyksis [en.wikipedia.org]. Ushbu maqolamizda mana shu deksisning

dastlabki turi bo'lmish vaqt deysksini ko'rib chiqamiz.

Vaqt deyksisi tushunchasi deb tilning nutq paytiga nisbatan vaqtni qanday ko'rsatilishiga ishora qiluvchi birliklarga nisbatan aytiladi. Bugungi kunga qadar, deyksis tushunchasini dunyoning bir qator olimlari o'rganishgan. Jumladan, Karl Bühler XX asrda o'z faoliyatini Spraxteoriya [Bühler 1934.434] kitobidan boshlab, unda deyksisni lingvistik va falsafiy

munozaralarning markaziy mavzusi sifatida talqin qildi. U lingvistik iboralarni gap konteksti bilan bog'lashda deysisning hal qiluvchi rolini aniqlagan olimlar ichida dastlabkisi bo'ldi.

Stephen Levinson deysis kontsepsiyani aynan pragmatika ya'ni nutq kontekstida rivojlanadi dedilar. Deysis nutq payti suhbat tuzilishi va xushmuomalalik strategiyalari davomida yuzaga kelishini ta'kidladilar. Deysis tushunchasi tadqiqotda muhim qismga aylanadi chunki u ko'rsatish hamda ishora qilish funktsiyasiga ega muayyan shaxs yoki narsa (obyekt, hodisalar, faoliyat va hokazo) kabilarni nutqimizda so'z yuritilayotgan voqealarni namoyon etadi [Levinson 1983; 54].

George Yule ham deysis kategoriyasini umumlashtirib, uni turli usullar bilan bog'liq tillar gap yoki nutq kontekstida ishora sifatida namoyon bo'lishini ko'rsatdi. [Yule 1996; 9]

Deysisni Levinson to'rt turga ajratdi va har birini quyidagicha izohladi: 1) shaxs deysisi bu - ma'lum toifalarga tegishli shaxs grammatik jihatdan olmosh tarkibiga kiradi, unda so'zlovchi, tinglovchi, uchinchi shaxslar kirgani bois shaxs deysisi deya nomlanadi deydi. 2) Vaqt deysisi bu - vaqtning toifalariga ishora qiladi, zero so'zlovchi nutq so'zlayotganda va muayyan vaqtga ham murojaat qilish mumkin masalan hozir, kecha va hokazo. 3) Ijtimoiy deysis bu - ma'lum ijtimoiy jihatlariga ishora qiladi, ijtimoiy mavqeining ma'lum bir haqiqatiga ta'sir qiladi, nutqiy hodisalarda yuzaga keladi. 4) Diskursiv deysis bu – so'zlovchi va uning nutqiga ishora qiladi, ba'zi bir gap ichidagi iboralarni, qaysidir qismga nutqni o'z ichiga oladi.

Aslida yuqorida keltirilgan deysis turlari ichida eng ko'p uchraydigani vaqt deysisidir. Chunki, vaqt deysisi ma'lum vaqtни bildiruvchi so'z va iboralarga ishora qiladi. Asosan, so'zlovchi voqea vaqti va harakatini ifodalashi uchun xizmat qiladi. Bu so'zlovchi gapirayotgan yoki yozayotgan

paytdir. Masalan, so'zlovchining nuqtai nazari deysis so'zlovchining nutq markazi bo'lib xizmat qiladi, vaqt birliklarini izohlashga yordam beradi. "Hozir", "bugun" yoki "ertaga" kabi so'zlar faqat so'zlovchining "hozir"iga nisbatan ma'noga ega. Hozir" va "Keyin Hozir so'zning hozirgi vaqtini anglatadi keyin" esa o'sha paytdan farq qiladigan vaqtни anglatadi,"Kecha" "Bugun" "Ertaga" Bu so'zlar navbati bilan aytilgan kunni bir kun oldin va keyingi kunni bildiradi. "Keyingi hafta", "O'tgan hafta", "Bu hafta": Grammatik zamon (o'tmish, hozirgi, kelajak) ham ish-harakatning aytilish vaqtiga nisbatan vaqtни ko'rsatuvchi vaqt deysis shaklidir. Grammatik zamon (o'tmish, hozirgi, kelasi) ham ish-harakatning aytilish vaqtiga nisbatan vaqtни ko'rsatuvchi vaqt deysis shaklidir [Fillmore 1971; 145].

Vaqt deysisini tushunish so'zlarni, ayniqsa og'zaki yoki yozma tilda to'g'ri talqin qilish uchun juda muhimdir.

U voqealarni muloqotning o'ziga xos konteksti bilan bog'lash uchun til qanday ishlatilishini ko'rsatadi. Bu so'zlovchilar o'z xabarlarini vaqtida asoslash uchun tildan qanday foydalanishini ko'rsatadi.

Ovulimiz ustidagi tepalikda ikkita katta terak bolardi, men buni bolalik chog'imdan bilardim. Bu qo'shterak hali ham bor. (Ch. Aytmatov. Muallim 2023. 96)

Keltirilgan jumlada deysis matndagi harakat, voqea yoki holatning gapiruvchining hozirgi nuqtasiga ya'ni, gapirilayotgan hozirgi vaqtga nisbatan aniqlanishini ifodalamoqda. Bundan tashqari, qaysi gap qaysi zamonda ekanligi va bu zamon hozirgi vaqt bilan qanday bog'lanishini ko'ramiz va gapdagi fe'llar ko'rib chiqamiz va vaqt deysisni tahlil qilamiz.

Ovulimiz ustidagi tepalikda ikkita katta terak bo'lardi o'tgan oddiy zamon,so'zlovchi nutqidan bolalik davriga, o'tgan vaqtga qaytyapti. *Men buni bolalik chog'imdan bilardim* o'tgan zamon, bolalikdan beri

davom etib kelgan bildim, lekin hozirgi paytda gapiruvchi nuqtasidan qaraganda bu o'tgan davrda paydo bo'lgan. *Bu qo'shterak hali ham bor-* hozirgi zamon so'zlovchi hozirgi vaqt nuqtasida ham bu teraklar borligini takidlayapti.

I have received your name from the Skilled Women's Agency together with their recommendation. I understand they know you personally (Agatha Christie And Then There Were None Frank Green, 1869 2-3)

Bu jumlada vaqt deysislarini sanab chiqamiz va tahlil qilamiz bu yerda ingliz tilida ikkita zamon ishlatilgan present perfect va present simple ishlatilgan, have received, present perfect ya'ni hozirgi tugallangan zamon bunda so'zlovchi ish harakat yaqin hozirda bo'lganiga ishora qiliyapti. *I understand* va *they know* esa present simple hozirgi oddiy zamonda turibdi va holat hozirgi zamonda ro'y berayotganini ko'rsatiyapti.

Mirzakarim aka qizini erga berdimi, eshitdingizmi? Bu savoldan nima uchundir Homidning chehrasi buzildi va tilar-tilamas javob berdi: — Bundan xabarim bo'lmadi. Gumonimcha, bermagandir.

(A.Qodiriy. O'tgan kunlar.4-5)

Bu yerdagi barcha fe'llar o'tgan zamonda va uni tahlil qilamiz *berdimi* — o'tgan zamon, so'ralayotgan voqea avval sodir bo'lganmi, degan ma'noda va bu so'roq gapni ifodalaydi, *eshitdingizmi* — o'tgan zamon, lekin hozirgi nutq vaqtiga yaqin (ya'ni shu paytgacha eshitdingizmi degan ma'noda), *buzildi* — Homidning chehrasi o'sha savol tufayli shu paytda buzildi bu ham o'tgan oddiy zamon, *bermagandir* — taxmin ifodalaydi; kelasi zamon yoki taxminiy hozirgi zamon.

He was an old man who fished alone in a skiff in the Gulf Stream and he had gone eighty-four days now without taking a fish. In the first forty days a boy had been with him. But after forty days without a fish the boy's parents had told him that the old man was now definitely and finally salao, which

is the worst form of unlucky, and the boy had gone at their orders in another caught three good fish the first week. (E. Hemingway. The Old Man and the Sea. 1-2)

Bu hikoyada ham vaqt deysisini ko'rib chiqamiz va tahlil qilamiz *"He was an old man..."* O'tgan zamon (past simple) — hikoya voqealari o'tmishda bo'layotganini bildiradi *fished* — *"...who fished alone..."* Ham o'tgan zamon, hikoya kontekstida voqealar o'tmishda ifodalangan *had gone* — *"he had gone eighty-four days* o'tmishda boshqa bir o'tgan voqega nisbatan ilgari bo'lgan voqeani bildiradi (past perfect). o'tgan tugallangan zamon ya'ni o'tgan zamondan avvalroq bo'lgan hodisaga ishora qiliyapti. *had been with him* — *"a boy had been with him"* gapi ham past perfect ishlatilgan ya'ni o'tmishda boshqa bir o'tgan voqeadan ham oldingi holatni ko'rsatiyapti *.had told him* — *"the boy's parents had told him..."* bu gap ham past perfect; o'tmishda bo'lgan voqealardan ham avvalgi voqeani ko'rsatadi.

had gone — *"the boy had gone at their orders..."* Shu kabi, o'tmishda bo'lgan boshqa voqega nisbatan oldinroq sodir bo'lgan voqeani ko'rsatiyapti. *caught* — *"...which caught three good fish..."* Oddiy o'tgan zamon (past simple) o'sha davrda bo'lgan voqeani ko'rsatadi. "Now" so'zi — aniq vaqt ko'rsatkichi sifatida vaqt deykisi va hozirgi oddiy zamon (present simple) payt ravishi bo'lib kelmoqda, *he had gone eighty-four days now without taking a fish* that the old man was now definitely and finally salao. So'zi voqealar hikoya qilinayotgan nuqtaga nisbatan "hozir" degan ma'noni beradi. Hikoya o'tgan zamonda bo'lsa ham, qahramonlarning nuqtai nazaridan o'sha vaqtdagi hozirgi vaziyatni bildiradi. Shuning uchun bu vaqt deysisi bo'lib, o'tmishdagi voqeani tasvirlayotgan nuqtada hozirgi holatni ko'rsatadi.

Xullas, ingliz tilida vaqt deyksisi asosan zamon kategoriyasi (present, past, future) va perfekt shakllari orqali ifodalangan bo'lsa, voqea vaqtini nutq vaqtiga nisbatan aniq belgilash imkonini beradi. O'zbek tilida esa vaqt deyksisi ko'proq zamon qo'shimchalari (–di, –moqda, –ar, –gan, –ib) morfologik birliklar yordamida ifodalanadi ; murakkab zamon tizimi ingliz tilidagiga nisbatan kamroq rivojlangan bo'lsa-da, voqea vaqtini ifodalashda kontekst muhim rol o'ynaydi. Bundan tashqari, o'zbek tilida tahmin, davomiylik va odatdagi holatni bildiruvchi shakllar ko'proq semantik yo'llar bilan amalga oshiriladi. Umuman olganda, har ikki tilda vaqt deyksisi nutq vaqtiga nisbatan voqealar vaqtini belgilashning muhim pragmatik vositasi bo'lib, ingliz tilida sintaktik va morfologik jihatdan ko'proq tizimlashtirilgan, o'zbek tilida esa kontekstual va leksik usullar yetakchilik qiladi. Ushbu farqlar ikkala tilning grammatik qurilishi, tarixiy taraqqiyoti va nutq uslubidagi xususiyatlari bilan izohlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Charles F. Lectures on deixis - CSLI 1971.
– P 255.

www.en.wikipedia.org

Levinson S. Pragmatics. - Cambridge University Press 1983 – P20.

Yule G. Pragmatics. - Oxford Introduction to Language Study series. Oxford University Press 1996. - P138.